

LANDSHAFT DIZAYNINING TARIXI, RIVOJLANISHI VA TARKIBIY ELEMENTLARI

T.Maxmutov

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
arxitektura kafedrası o'qtuvchi stajyori e-mail:*

talgat.maxmutov@gmail.com

Annotatsiya: Landshaft dizaynining kelib chiqish tarixi, rivojlanishi va asosiy tarkibiy elementlariga oid masalalar qamrab olingan. Landshaft dizaynini arxitektura, botanika va tarixiy-falsafiy qarashlarni o'zida mujassamlashtirgan san'at turi sifatida tavsiflaydi. Ushbu yo'nalishning ahamiyati nafaqat go'zallik, balki tabiiy va sun'iy muhitni uyg'unlashtirishda ham muhim ekanligi qayd etiladi.

Maqolada qadimgi sivilizatsiyalardagi bog'dorchilik an'analari — Misr, Mesopotamiya, Yunon, Rim va boshqa hududlardagi tarixiy bog'lar va ularning xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, Semiramidaning "osilib turuvchi bog'lari" kabi arxitektura mo'jizalari, manzarabop o'simliklarning tarqalishi va foydalanilishi, parklar va ulardagi ekzotik o'simliklar haqida batafsil bayon etilgan. Shuningdek, maqolada landshaft dizaynining shakllanishida tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro ta'sir, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarining ahamiyati yoritilgan. Har bir davrdagi bog'lar tarzi va elementlari orqali insonning tabiatga munosabati va estetik didi aks etgani ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: *Landshaft dizayni, baland bog'lar, qadimgi bog'lar, bog'dorchilik san'ati, tabiat va inson, obodonlashtirish, tarixiy bog'lar, estetik muhit, manzara o'simliklari, sun'iy va tabiiy uyg'unlik.*

Kirish. Bugungi kunda landshaft dizayni nafaqat atrof-muhitni obodonlashtirish va estetik jihatdan bezash vositasi, balki inson bilan tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlovchi muhim san'at yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Uning shakllanishi uzoq tarixiy jarayonlarga borib taqaladi. Dastlabki bog' va manzarali makonlar qadimgi sivilizatsiyalarning diniy, madaniy va ijtimoiy hayotida muhim o'rin egallagan. Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy, Yunoniston va Rim kabi qadimiy davlatlarda landshaft san'atining ilk namunalari vujudga kelgan bo'lib, ular nafaqat go'zallik balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lgan. Mazkur maqolada landshaft dizaynining

kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari, qadimiy bog'lar va ularning xususiyatlari, shuningdek, inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqaning mazmuni yoritiladi. Shuningdek, landshaft dizaynining asosiy elementlari va ularning zamonaviy urbanistik makonlarda tutgan o'rni haqida ham so'z yuritiladi.

Landshaft dizayni - bu uch yo'nalishni o'zida mujassamlashtirgan san'atdir, ya'ni: bir tomondan arxitektura, kurilish va dizayn, boshqa tomondan botanika va o'simlik dunyosi hamda uchinchi tomondan landshaft dizaynida tarixi va falsafiy qarashlarni o'zida aks ettiradi. Bundan tashkari, landshaft dizayni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish uchun amaliy xarakatlar jamlanmasi sifatida ham qaraladi.

Landshaft dizaynining asosiy vazifasi go'zallikni binolarning infratuzilmasidan foydalanishorqali, ulardagi qulayliklar bilan birgalikda yaratish, ko'pincha arxitektura shakllari va tabiat o'rtasidagi ziddiyatlarni yumshatish va uyg'unlashtirishni ifoda etadi.

Qadim zamonlardan beri bog'lar yashil maydonlar yordamida atrofdagi makonni tashkil qilishning an'anaviy shakli bo'lib kelgan. Ular Sharq mamlakatlari xukmdorlari va zodagonlari sudlarida alohida mashhurlikka erishgan. Bog'dorchilik san'at sifatida deyarli hamma joyda tarqaldi. Shu bilan birga, bog'dorchilikning foydasi (mevalarni iste'mol qilish va mevali daraxtlarni tanlash) uzoq vaqt davomida muhim rol o'ynagan, keyinchalik gullarning bezakliligi ko'prok e'tiborga sazovor bo'lgan. Ammo na mevali daraxtlar, na gullar zamonaviy landshaft dizaynida, ayniksa uning zamonaviy shahar shaklida juda keng tarqalmagan. Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish 20-asrning konsepsiyasi hisoblanib, bu atama G'arbiy Yevropada, birinchi navbatda aholi zich joylashgan va sanoati rivojlangan mamlakatlarda: Buyuk Britaniyada, Germaniyada paydo bo'lgan, bu yerda massiv sanoatlashtirish va shahar atroflarining o'sishi tezda atrof-muxitga ta'sir o'tkazdi.

"Landshaft dizayni" tushunchasi bizning xayotimizga yaqinda kirib kelgan bo'lsada keyin ularning mohiyati ancha qadimiy. Inson tomonidan yaratilgan landshaftlarning yaratilishi haqli ravishda eng qadimgi san'at turlariga tegishlidir, bu bizning mavjudligimiz tarixi inson sivilizatsiyamiz davomida shakllanib kelgan.

Olimlarning fikriga ko'ra, landshaft dizaynida qo'llanilgan eng birinchi manzarali o'simliklar atirgul bilan lotos bo'lgan. Bu o'simliklardan jamiyatda 5,5-6 ming yil, gulsafsar va xrizantemadan esa 4 ming yil avval foydalanilgan. Ota- bobolarimizning bu gullarga bo'lgan muhabbatini qoyalarga va uy-joy

jihozlariga tushirilgan tasvirlardan, kashtalarga tikilgan gullardan, naqshlardan, eski qo'lyozmalardan bilish mumkin.

Krit orolida olimlar tomonidan 3500-yil ilgari atirgul tasviri topilgan. Umuman, bu gullarning tarqalishi 1000-yil avval boshlanib Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy, Eron, Yaqin Sharq, Misrdan o'tib Yunoniston va Rimgacha yetib kelgan. Qadimgi Yunonda atirgul go'zallik xudosi Afrotidaga bag'ishlangan, uning ehromi atroflarini atirgullardan tashkil topgan go'zal bog'lar o'rab turgan.

Rimliklarda atirgul «jasorat» timsoli hisoblangan. Bu gullardan ishlangan gulchambarlar g'oliblarning boshlariga kiydirilgan. Har bahorda olamdan o'tganlar xotirasi uchun atirgullardan iborat «gullar bayrami» o'tkazilgan. Qadimgi Misr hunarmandlari ehrom, saroy hamda jamoat joylarini g'aroyib mevali daraxtlar va gullar bilan bezashgan. O'sha zamonlardayoq tropik va subtropik o'simliklar saroy bog'lari va xonalarini ko'kalamzorlashtirishda qo'llanilgan. Tel-El-Amarandan topilgan toshdagi yozuvlar shundan dalolat beradiki, bu yerlarda yo'l chetlarida qator qilib manzarali daraxt ekilgan.

Saroy va uy oldilaridagi bog'larda birinchi marta yassi tomli uylar qurilishi Yaqin Sharqda odat tusiga kirgan. «Osilib turuvchi bog'lar» markazi Vavilon, Assiriya bo'lib, u Yefrat va yo'lbars daryolari yonidagi serhosil vodiylarda joylashgan. Vavilon bog'i, bog' tashkil etish san'atining namunali timsolidir, boshqacha aytganda, Semiramidaning «osilib turuvchi bog'lar»i qadimgi dunyo ajoyibotlarining biridir. Bu g'aroyib qadimgi dunyo bog'lar, Vavilon shoxining ko'rsatmasiga binoan, uning sevimli malikasi sharafiga tashkil etilgan. «Osilib turuvchi bog'lar» to'rt qavatli keng minoralarda joylashgan bo'lib uning ayvonlarida palmalar, kiparislari, mevali daraxtlar, manzarali noyob o'simliklar va chiroyli gullar o'stirilgan. Mevali daraxtlar, gulli o'simliklar, hattoki noyob qushlari bo'lgan qadimgi Solomon bog'lari haqidagi ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan.

Ko'kalamzorlashtirishning asosiy jihati shundan iboratki, bunda tabiiy daraxt ekinzorlari hududidan foydalangan holda, qiyofasini o'zgartirib borish, tabiat namunalarini amaliy san'at ishlari bilan birlashtirib, yaxlit bir manzarani yaratishdir.

Manzarabop ekinlarni ko'paytirish quldorlik jamiyati davrida vujudga bog'lar barpo etish va ko'kalamzorlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Qadimiy Misr bog'larini rejalashtirishda ma'lum qoidalarga amal qilingan: kompozitsiya markazida asosiy bino joylashgan, ikki tomoniga daraxt ekilgan uzun yo'lak (alleya) ushbu kompozitsiyaning asosiy qismi bo'lib, hovliga kirish

joyi bilan bog'langan hamda bog' hududini ikkita teng bo'limga ajratgan. Har bir bo'lagida esa to'g'ri burchakli suv havzalari barpo etilgan.

Mesopotamiya bog'lari. Qadimiy Mesopotamiya davlatlarida ov qilishga mo'ljallangan katta qo'riqxonalar tashkil qilingan. Eramizga qadar V asrdayoq geron bog'lari keng tarqalgan bo'lib, ular ustunlar va xaykallar bilan bezalgan, bu joylarda shaxid ketgan qaxramonlar sharafiga sport musobaqalari o'tkazilgan. Eramizgacha IV-III asrlarda aholi turar hovli joylari oldida kichik bog'lar barpo etilgan, ularda yagona manzara elementi bo'lib daraxt, fontan yoki alohida haykal joylashtirilgan.

Mesopotamiya xalqlarining bog'- park san'ati tarixi, odatda, 3 davrga: shumero-akkad, ossuriya va yangi bobilliklar davrlariga bo'linadi.

Shumeroakkadlar davri o'ziga xos ehromlar – zikkuratlar tarkibidagi bog'lar bilan ajralib turgan. Zikkurat pog'onasimon piramida ko'rinishidagi minoraga o'xshash, yirik xom g'isht va toshlardan qurilgan ko'p qavatli (odatda 7 qavatlik) bino bo'lib, eng yuqori qavatda ehrom ko'shki joylashgan. Mesopotomiyaning eng qadimgi bog'lari Ure tog'idagi zikkuratning pog'onasimon bog'lari hisoblangan (eramizgacha XXIV-XXIII asrlar). Ehrom pog'onalar keng bo'lib, ularda turli xil o'simliklar o'stirilgan.

Ossuriylar davri bog'lari katta o'lchamlari bilan farq qilgan. Tabiiy daraxtzorlar va o'simliklar ov va hordiq chiqarishga mo'ljallangan istirohat bog'lariga aylantirilgan. Bu bog'lar rejasi qat'iy muntazamlikka ega bo'lmay, o'simliklar o'rmonlardagi kabi ancha erkin joylashtirilgan. Bog'lar devorlar bilan aylantirilgan.

Bobilliklar davrida davlat tomonidan qo'riqlanadigan rivojlangan sug'orish tarmoqlari mavjud bo'lib, ular o'simliklar o'stirish va bog'lar bunyod etish imkonini bergan.

Shoh Sargon (eramizgacha 711-707-yillar) o'zi qurdirgan yangi shahar

Dur-Shurakindagi saroyi qoshida katta park bunyod etib, uni Xett mamlakatidan keltirilgan turli xil ekzotik o'simliklar va tog' mevalari bilan bezatadi. Sargonning o'g'li Sanxerib ham Ossiriyaning avvalgi poytaxti Nineviyada saroy qurib, uning yonida park bunyod etadi va parkda turli xil bog'lar, shuningdek, mevali daraxtlar hamda uzumzor tashkil qiladi. Bog'lar kanal orqali sug'oriladi va unda uzumlar, mevali daraxtlar, xushbo'y o'tlar, gullar, sarv, palma va boshqa o'simliklar yayrab o'sadi. Parkda, shuningdek, noyob hayvonlar ham saqlanadi, sun'iy suv havzalari va turli shakllardagi pavilonlar quriladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, landshaft dizayni insoniyat tarixida qadimdan shakllanib kelgan san'at va amaliy faoliyat yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nafaqat go'zallik yaratishga, balki tabiat bilan uyg'unlikda yashash madaniyatini shakllantirishga xizmat qilgan. Qadimiy bog'lar — Misr, Mesopotamiya, Yunoniston va Rimdagi tarixiy namunalar — insonning tabiatga bo'lgan estetik va ruhiy ehtiyojini ifoda etgan.

Maqolada keltirilgan dalillar asosida aytish mumkinki, landshaft dizayni orqali inson atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli, ongli va ijodiy yondasha boshlagan. Bugungi kunda ham landshaft san'ati ekologik barqarorlikni ta'minlash, shaharlarda yashash muhitini yaxshilash va estetik qadriyatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Shuning uchun, bu yo'nalishni yanada chuqur o'rganish, tarixiy tajribalardan foydalanish va zamonaviy ehtiyojlarga mos ravishda rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevralda "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" farmoni.

2. Потаев Г.А., Мазаник А.В., Нитиевская Е.Е. Архитектурно-ландшафтный дизайн: теория и практика. Учебное пособие. /под общ.ред. Потаева Г.А – М.: «ФОРУМ», 2019.

3. Principles Ecological Landscape Design/ by Travis Beck, Printed using Franklin Gothic Condensed. - 294 p

4. Александрова А. Ю. Тематические парки мира. Учебное пособие. - М: КНОРУС, 2017.

5. Нельзина О.Ю., Окорочков А.В., Поляков Т.П. Тематические парки как учреждения музейного типа: проблемы и перспективы – М.: Институт Наследия, 2019.

6. К.Д.Рахмонов. Боғ парклари лойихалашнинг замонавий йўналишлари. Тошкент 2017

7. А.Қ.Қайимов, Дж.Турок. Аҳоли яшаш жойларини кўкаламзорлаштириш.

Planting trees and shrubs in human settlements. –Т.: «Fan va texnologiya», 2012, 124 бет.

8. Encyclopedia of Garden Design Planning Building and Planting Your Pefect Outdoor Space, 2015.

9. Moscow Street Design Book, 2015.

Internet saytlari:

10. www.ziyonet.uz

11. www.стройка.уз

12. www.проект.ру

13. www.architime.ru